XALQ DEPUTATLARI SARIOSIYO TUMANI KENGASHI

Sariosiyo tumani, A.Qahhor ko‘chasi 1-uy, 191001, tel.: 76-48-7-64-62, faks: 76-48-7-66-66, sariosiyo.t@exat.uz

2022 - yil 29 - iyun VI-43-85-8-116-K/22 Sariosiyo tuman hokimligi

Tumandagi ayrim ko‘chalarning nomlarini o‘zgartirish va tasdiqlash to‘g‘risida

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida ”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida ”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari Sariosiyo tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 14-apreldagi 01-14-518-son yig‘ilish bayoni ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda nomlari o‘zgarayotgan hamda nom berilayotgan ko‘chalarning ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (O.Qosimov), tuman qurilish bo‘limi (M.So‘fiyev), Davlat kadastrlar palatasi Sariosiyo tumani filiali (I.Qurbonov) tuman hokimligi bilan birgalikda nomlari o‘zgartirilgan hamda tasdiqlangan ko‘chalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman ichki ishlar bo‘limi (M.Amonto‘rayev) nomlari o‘zgargan hamda tasdiqlanayotgan ko‘chalarda yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini amalga oshirsin.

5. Tuman qurilish bo‘limi (M.So‘fiyev) hududlarda nomlari o‘zgartirilgan geografik obyektlarga yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

6. Tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Sh.Rahmonov)ga mahalla fuqarolar yig‘inlari rahbar-xodimlari bilan bir oy muddatda Qonun talablari asosida nomlari tasdiqlangan, o‘zgartirilgan ko‘chalarni xatlab chiqilishini;

nomlari tasdiqlangan ko‘chalarga belgilangan tartibda ko‘rsatgich belgi va peshlavhalarni o‘rnatilishini ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

7. Mazkur qaror tuman hokimligi axborot xizmati (M.Xasanova), “Sariosiyo” gazetasi (A.Rahmonov)ga rasman e’lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (N.Chorshanbiyeva), xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (T.Mirzayev) zimmalariga yuklatilsin.

9. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **A.P.Xujaqulov**

Xalq deputatlari Sariosiyo tuman Kengashining
2022 yil 29 iyundagi
VI-43-85-8-116-K/22-son qaroriga
1-ilova

Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanidagi ko‘chalarni nomlash to‘g‘risidagi takliflar

T/r	Geografik obyekt ningturi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tumanva viloyat komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Ekspertiza xulosasi
1	2	3	4	5	6
	Aylanma ko‘cha	“Gulobod” MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Mustaqillik **2.Ko‘rkamobod** 3.X.To‘xtaboev	Ko‘rkamobod - ko‘chani ko‘rkamlashtirish, obodlashtirish ma’nosida
2.	Ko‘cha	“Gulobod” MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Mustaqillik 2.Shakarsoy **3.Qo‘ng‘irot**	Qo‘ng‘irot - elning nomi
3.	Aylanma ko‘cha	“Gulobod” MFY	Nomsiz ko‘cha	**1.Zarkamar** 2.Ohangaron 3.Polvontosh	Zarkamar – maxalliy joy nomi
4.	Aylanma ko‘cha	“Gulobod” MFY	Nomsiz ko‘cha	1.**Islom Karimov** 2.Zilol 3.At Termiziy	Islom Karimov – birinchi Prezidentimiz nomi abadiy bo‘lishi ma’nosida
5.	Aylanma ko‘cha	“Gulobod” MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Do‘stlik 2.**Qo‘shchinor** 3.Yakkabog‘	2.Qo‘shchinor - ko‘chada qo‘shchinor daraxti borligi uchun
6.	Aylanma ko‘cha	“Gulobod” MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Tinchlik 2.Dashnobod **3.O‘rikzor**	O‘rikzor - ko‘chada o‘rik daraxtini yetishtirish ma’nosida
7.	Ko‘cha	“Gulobod” MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Taraqqiyot 2.K.Behzod **3.Bunyodkor**	Bunyodkor - quruvchi, yaratuvchi ma’nosida
8.	Ko‘cha	Sarijar MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Birdamlik **2.Kattasoy** 3.Navro‘z	2.Kattasoy - katta soy borligi ma’nosida
9.	Ko‘cha	Sarijar MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Amir Temur **2.Ko‘kterak** 3.Qorasuv	2.Ko‘kterak - ko‘kterak borligi ma’nosida
10.	Ko‘cha	Sarijar MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Mustaqillik **2.Yakkatepa** 3.Mingtol	2.Yakkatepa- tepalik bor ma’nosida
11.	Ko‘cha	Sarijar MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Alisher Navoiy **2.Shahrixon** 3.Yangiariq	2.Shahrixon - joy nomi
12.	Ko‘cha	Anorzor MFY	Nomsiz ko‘cha	1.At-Termiziy **2.Fuzuliy** 3.G‘azalkent	2.Fuzuliy - adabiyotshunos, shoir
13.	Ko‘cha	Anorzor MFY	Nomsiz ko‘cha	**1.O‘qituvchilar** 2.Sayhunobod 3.Toshkent	1.O‘qituvchilar- o‘qituvchilarga hurmat ma’nosida
14.	Ko‘cha	Anorzor MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Archazor **2.U.Xayyom** 3.Uchterak	2.U.Xayyom - faylasuf, matematik, astronom va shoir

15.	Ko‘cha	Anorzor MFY	Nomsiz ko‘cha	**1.Bog‘bonlar** 2.Yangiyer 3.Paxtachi	1.Bog‘bonlar - bog‘ bilan shug‘ullanuvchilarning ko‘pligi ma’nosida
16.	Ko‘cha	Anorzor MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Nodirabegim **2.A.Fitrat** 3.Sulton	2.A.Fitrat - O‘zbek adabiyoti, fan va ma’daniyatining yirik vakili
17.	Ko‘cha	Diydor MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Nurafshon **2.Sherobod** 3.Zafarobod	2.Sherobod- joy nomidan kelib chiqib
18.	Berk ko‘cha	Diydor MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Zarafshon 2.Surxon **3.Mashinosozlar**	3.Mashinosozlar- ko‘chada mashinasozlar borligi ma’nosida
19.	Aylanma ko‘cha	Diydor MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Amir Temur **2.Chamanzor** 3.Orzu	1.Amir Temur - Tarixiy shaxs, xukmdor, buyuk sarkarda
20.	Ko‘cha	Diydor MFY	Nomsiz ko‘cha	1.O‘zbekiston 2.Adiblar **3.B.Naqshbandiy**	3.B.Naqshbandiy - mashhur avliyo, naqshbandiya tariqatining asoschisi
21.	Aylanma ko‘cha	Daragiston MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Taraqqiyot 2.Iftixor **3.Nafosat**	3.Nafosat- go‘zallik, nafislik va latofatli ma’nosida
22.	Ko‘cha	Daragiston MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Mustaqillik 2. Adolat **3. Tabassum**	3. Tabassum - xursandchilik ma’nosida
23.	Ko‘cha	Daragiston MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Amir Temur **2.Ulug‘ yo‘l** 3.Qalqon	2.O‘lug‘ yo‘l - kelajakka olib boruvchi ulug‘ yo‘l ma’nosida
24.	Aylanma ko‘cha	Daragiston MFY	Nomsiz ko‘cha	1. At-Termiziy **2. Umid** 3. Shukrona	2. Umid - orzu, istak, umid ma’nosida
25.	Ko‘cha	Niholzor MFY	Nomsiz ko‘cha	1. M. Bobur 2.Nafosat **3.Samo**	3.Samo - osmon, falak ma’nosida
26.	Ko‘cha	Niholzor MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Ibn Sino 2.Shabada **3.Kamalak**	3.Kamalak - tabiat xodisasi ma’nosida
27.	Aylanma ko‘cha	Niholzor MFY	Nomsiz ko‘cha	**1.M. T. Oybek** 2.Nastarin 3.Jilvakor	1.M. T. Oybek - Davlat va jamoat arbobi , shoir va tarjimon
28.	Ko‘cha	Niholzor MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Xamza Xakimzoda **2.Ijodkorlar** 3.Porloq	2.Ijodkorlar - ijodkorlarni ulug‘lash, ijod qilish ma’nosida
29.	Aylanma ko‘cha	Niholzor MFY	Nomsiz ko‘cha	**1.Baynalminal** 2.Ravnaq 3.Shijoat	1.Baynalminal - hamdustlik ma’nosida
30.	Aylanma ko‘cha	Feruz MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Farovon **2.Gavhar** 3.Iftixor	2.Gavxar - qimmatbaxo tosh
31.	Berk ko‘cha	Feruz MFY	Nomsiz ko‘cha	1.O‘zbekiston **2.Sahovat** 3.Kamalak	2.Sahovat - sahovatli, quli ochiqlik ma’nosida
32.	Berk ko‘cha	Feruz MFY	Nomsiz ko‘cha	**1.Shirinobod** 2.Iftixor 3.Sunbula	1.Shirinobod- shirin, qovun tarvuz yetishtiriladigan ko‘cha
33.	Aylanma ko‘cha	Feruz MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Mustaqillik 2.Nafosat **3.Ilg‘or**	3.Ilg‘or - faol, intiluvchan ma’nosida

34.	Berk ko‘cha	Feruz MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Tinchlik **2.Paxlavon** 3.Baxtobod	2.Paxlavon - kuchli, baquvvat polvon ma’nosida
35.	Aylanma ko‘cha	Madankon MFY	Nomsiz ko‘cha	**1.Yangi yo‘l** 2.Navbahor 3.Semurg‘	1.Yangi yo‘l - yo‘llarning yangilanishi ma’nosida
36.	Berk ko‘cha	Madankon MFY	Nomsiz ko‘cha	**1.Obodon** 2.Ziyokorlar 3.Sohibqiron	1.Obodon - ko‘chani obodlashtirish ma’nosida
37.	Berk ko‘cha	Madankon MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Porloq yo‘l **2.Shon-shuhrat** 3.Alpjamol	2.Shon-shuxrat - shon-shuxrat, sharafga erishish ma’nosida
38.	Aylanma ko‘cha	Madankon MFY	Nomsiz ko‘cha	**1.Ziyokorlar**	1.Ziyokorlar ilmli olimlar ziyolilar manosida
39.	Berk ko‘cha	Madankon MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Gulzor **2.Namuna** 3.Nastarin	2.Namuna - urnak, ibrat ma’nosida
40.	Berk ko‘cha	Turmushobod MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Yoshlik 2.Nafosat **3.Nashida**	3.Nashida - tantanali she’r, madhiya ma’nosida
41.	Ko‘cha	Turmushobod MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Paxtakor **2.Olmos** 3.Hayot	2.Olmos - qimmatbaho tosh ma’nosida
42.	Berkko‘cha	Turmushobod MFY	Nomsiz ko‘cha	1. Yangihayot 2. I.stiqlol 3.**Yangi O‘zbekiston**	**3.** Yangi O‘zbekiston nomi bilan bog‘laydigan bo‘lsak oxirgi 5 yilda ushbu mahallada ko‘plab qurilishlar va obodonlashtirish bo‘lganligi va Yangi O‘zbekistonga havasmand shaklda taklif berildi
43.	ko‘cha	Lutfkor MFY	Nomsiz ko‘cha	Baxt **Bog‘iasl** Xondamir	2. Turli mahsulotlar yetishtiriladigan bog mavjud bo'lib usgbu bog' mevalari shirin bo'lganligi sababli ushbu nomni qo'yish tavfsiya etiladi
44.	ko‘cha	Lutfkor MFY	Nomsiz ko‘cha	Baxt uyi **Nurli** **yo'l** Xayrobod	2. Ko'chadagi barcha sim yog'ochlarga tunda yoritsh chiroqlari o'rnatilib yo'llar tamirlangan shu sababli ushbu nom tavfsiya qilindi
45.	Aylanma ko‘cha	Lutfkor MFY	Nomsiz ko‘cha	**Baxtli hayot** Baxtli el Fayzli xonadon	1. Yangi honadonlar qurilib yosh oila vakillariga berilgan uy joylarda baxtli hayot kechirsin degan maqsatda ushbu nomni qo'yish tavfsiya etiladi
46.	Aylanma ko‘cha	Lutfkor MFY	Nomsiz ko‘cha	Azim surxon **Oltin** **asr** Chust	2. Yangi O'zbekistonda aholi rohat va farog'atda yashayotganligi, dasturxonlarda barcha nozu nemat bisyorligi osmoni musaffo zaminda yashayotganligi sababli shu nomni qo'yish tavfsiya etildi
47.	Aylanma ko‘cha	Lutfkor MFY	Nomsiz ko‘cha	Alvon **Yangi** **asr** Damashq	2. Yangi O'zbekistonda aholi rohat va farog'atda yashayotganligi, dasturxonlarda barcha nozu nemat bisyorligi osmoni musaffo zaminda yashayotganligi sababli shu nomni qo'yish tavfsiya etildi
48.	Ko‘cha	Alisher Navoiy	Nomsiz ko‘cha	Abdurahmon Jomiy**Bog‘ichinor** Yangikun	2. Mahalla ko'chalari to'lliq chinor daraxti ekilganligi sababli ushbu nomni qo'yish tavfsiya etiladi
49.	Boshi berk	Alisher Navoiy	Nomsiz ko‘cha	**Ko'klam** Bog'ishirin Erkin yurt	1. Guliston mahallasi keng dala va yaylov yerlardan tashkil topgan bo'lib baxor mavsumida yashil ranga burkanib turli yovoyi gullarga burkanadi shu sababli ushbu nomni qo'yish tavfsiya etiladi
50.	Aylanma ko‘cha	Alisher Navoiy	Nomsiz ko‘cha	**Mirishkor** Bo'stonsaroy O‘zbek yurti	1. Mirishkor dexqonlar yetishtirgan paxta g'alla mahsulotlari yetishtirib tumanimiz rejasini bajarishda o'z hissasini qo'shib kelishmoqda shu sababli ushbu nomni qo'yish tavfsiya etiladi
51.	Aylanma ko‘cha	Alisher Navoiy	Nomsiz ko‘cha	Jannat guli Mehr bog‘i **Yangikuch**	3. Ulg'ayib kelayotgan yoshlar yangi kuch bo'lib yurtimiz rivoji uchun o'z hissasini qo'shsin deb ushbu nomni qo'yish tavfsiya etildi
52.	Aylanma ko‘cha	Mirzo Ulug‘bek	Nomsiz ko‘cha	Baxt gulzori Mehridaryo **Yashildiyor**	3. Majoziy ma'noda shu nomni qo'yish tavfsiya etiladi

53.	Aylanma ko‘cha	Mirzo Ulug‘bek	Nomsiz ko‘cha	**To'g'on** Mash'al Namuna	1. Surxon suv omori atrofini mahalla hududidagi tepaliklar to'g'on bo'lib o'rab turganligi sababli ushbu nomni qo'yish tavfsiya etiladi
54.	Aylanma ko‘cha	Mirzo Ulug‘bek	Nomsiz ko‘cha	Janub shamoli Nurli manzil **Mardlar**	3. Kurashchi va chovog'on polvonlar borligi sababli ushbu nomni qo'yish tavfsiya etiladi
55.	Ko‘cha	Mirzo Ulug‘bek	Nomsiz ko‘cha	**Zarchashma** Tannovor Sevimli	1. Daryo yoqasida tabiy buloq borligi sababli ushbu nomni qo'yish tavfsiya etiladi
56.	Aylanma ko‘cha	Mirzo Ulug‘bek	Nomsiz ko‘cha	Qalb gavhari Marjon **O'rtasoy**	3. Mahallatepalikustidajoylashganbo'libbirqismisoylikchetidajoylashganushbuyerlaro'rtasoydebataladishusababliushbunomniqo'yishtavfsiyaetiladi
57.	Ko‘cha	Maland MFY	Nomsiz ko‘cha	**Bo'ston sohili** Shamol Sokin	1. Ushbu ko'cha Surxon suv onbori yoqasida joylashganligi sababli shu nomni qo'yish tavfsiya etildi
58.	Ko‘cha	Maland MFY	Nomsiz ko‘cha	Hidoyat Gulsaroy **Bog'iravon**	3. Mahalladagi bog;larga borish yo'llari tunda yoritish chiroqlari va ko'chalar asfalt bo'lganligi sababli shu nomni qo'yish tavfsiya etildi
59.	Ko‘cha	Shabnam MFY	Nomsiz ko‘cha	**Shodiyona** O'zbekiston yoshlari Ittifoq yoshlar	1. mahalladagi insonlar doimo shod xurram yashasinlar deb shu nomni qo'yish tavfsiya etiladi
60.	Ko‘cha	Shabnam MFY	Nomsiz ko‘cha	**Sharq tongi** Sofdil Minor	1. Majoziyma'nodashunomniqo'yishtavfsiyaetiladi
61.	Aylanma ko‘cha	Shabnam MFY	Nomsiz ko‘cha	Fidokor Yoshlar Sarbon yigitlar **Qushbegi**	3. Majoziy ma'noda shu nomni qo'yish tavfsiya etiladi
62.	Aylanma ko‘cha	Shabnam MFY	Nomsiz ko‘cha	Surxon sadosi Ravon **Oltin vodiy**	3. Majoziy ma'noda shu nomni qo'yish tavfsiya etiladi
63.	Berkko‘cha	Billur MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Nurli kelajak 2.Jayhun **3.Jambul**	3.Jambul - Elning nomi
64.	Aylanma ko‘cha	Billur MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Amir Temur 2.Farovonlik **3.Baxt**	3.Baxt - baxtli , saodatli ma’nosida
65.	Berkko‘cha	Billur MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Alisher Navoiy **2.Jiydazor** 3.Yangiobod	2.Jiydazor - ko‘chada jiyda daraxtlarining ko‘pligi ma’nosida
66.	Aylanma ko‘cha	Billur MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Tadbirkorlar **2.Oqoltin** 3.Archazor	2.Oqoltin - milliy boyligimiz bo‘lgan paxta ma’nosida
67.	Ko‘cha	Billur MFY	Nomsiz ko‘cha	**1.Taraqqiyot** 2.Marjon 3.Nurjahon	1.Taraqqiyot - rivojlanish ma’nosida
68.	Aylanma ko‘cha	Karsh MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Mirza Bobur **2.Muruvvat** 3.Musaffo	2.Muruvvat - muruvvat kursatish, yordam berish ma’nosida
69.	Aylanma ko‘cha	Karsh MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Paxtakor 2.Tarovatli **3.Qadriyat**	3.Qadriyat - qadr-qimmat, qadrlash ma’nosida
70.	Ko‘cha	Xonjiza MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Mustaqillik 2.Ohangrabo **3.Ishbilarmon**	1.Mustaqillik - mustaqillikka erishgan kunimiz uchun 2.Ohangrabo - kuy, qushiq , oxang ma’nosida 3.Ishbilarmon - tadbirkorlar ma’nosida
71.	Aylanma ko‘cha	Xonjiza MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Abdulla Qodiriy **2. Ogahiy** 3. Odillik	2. Ogahiy - o‘zbek shoiri va tarixchisi, tarjimon
72.	Ko‘cha	Xonjiza MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Istiqlol **2. Avaz O‘tar** 3.Sobir Rahimov	2. Avaz O‘tar- o‘zbek ma’rifatparvar shoiri

73.	Ko‘cha	Sangardak MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Muqumiy **2.Hamid Olimjon** 3.To‘maris	2.Hamid Olimjon - shoir va dramaturg
74.	Ko‘cha	Afrosiyob MFY	Nomsiz ko‘cha	Istiqlol **Sarchashma** Shahriston	Sarchashma-deb nomlanishiga sabab ushbu ko‘chada er tagidan sizib chiquvchi suv borligi sababli shu nomni qo‘yish tavfsiya etiladi.
75.	Berkko‘cha	Hamkorlik MFY	Nomsiz ko‘cha	Birdamlik Archa **Sholikor**	3.Sholikor - ko‘chada sholi yetishtiruvchilar borligi ma’nosida
76.	Berkko‘cha	Hamkorlik MFY	Nomsiz ko‘cha	Obodon Bog‘dorchilik **Yog‘du**	3.Yog‘du - nur, shul’a ma’nosida
77.	Ko‘cha	Hamkorlik MFY	Nomsiz ko‘cha	Navro`z **Mahtumquli** Maysazor	2.Mahtumquli - turkman shoiri va mutafakkir
78.	Ko‘cha	Hamkorlik MFY	Nomsiz ko‘cha	Quruvchilar **Xalqlar do‘stligi** Nastarin	2.Halqlar do‘stligi - boshqa millat vakillari kuproq yashashi uchun
79.	Tor ko‘cha	Hamkorlik MFY	Nomsiz ko‘cha	Ibn Sino **Saodat** Hamrox	2.Saodat - baxt, saodat , iqbol ma’nosida
80.	Aylanma ko‘cha	Shoqishloq MFY	Nomsiz ko‘cha	Do‘stlik **Gulshan** Muhtasham	2.Gulshan –gulzor chamanzor ma’nosida
81.	Aylanma ko‘cha	Shoqishloq MFY	Nomsiz ko‘cha	Navro`z **Moziy** Quyoshli yurt	2.Moziy - tarixni eslash ma’nosida
82.	Ko‘cha	Shirin MFY	Nomsiz ko‘cha	Ibn Sino **Afsona** Barhayot	2.Afsona - ertak, afsona, asotir ma’nosida
83.	Aylanma ko‘cha	Bog‘iobod MFY	Nomsiz ko‘cha	Yoshlik **Baraka** Xurriyat	2.Baraka - fayz- baraka, mo‘l-ko‘lchilik ma’nosida
84.	Ko‘cha	Bog‘iobod MFY	Nomsiz ko‘cha	8-mart Orom **Nazm**	3.Nazm - she’rlar, she’r yozish ma’nosida
85.	Aylanma ko‘cha	Billur MFY	Nomsiz ko‘cha	**Farobiy** Mehr oqibat Janub gavhari	1.Farobiy - faylasuf, olim, astronom, matematik
86.	Aylanma ko‘cha	Billur MFY	Nomsiz ko‘cha	Do‘stlik **Baxtli el** Navo	2.Baxtli el - elimizni baxt-saodatligi ma’nosida
87.	Aylanma ko‘cha	Billur MFY	Nomsiz ko‘cha	Alisher Navoiy Xofiz Sheroziy **Ko‘hinur**	3.Ko‘hinur - qimmatbaho tosh
88.	Aylanma ko‘cha	Billur MFY	Nomsiz ko‘cha	Muqumiy Hamid Olimjon - **To‘maris**	3.To‘maris – Xalq qahramoni
89.	Aylanma ko‘cha	Subhidam MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Yurt iftihori **2. Pillakor** 3.Abu Ali Ibn Sino	2. Ushbu ko‘chadagi xonadonlarda asosan yilning aprel va may oylari davomida oilalar tomonidan pilla ko‘p etishtirilgani uchun ushbu nom taklif sifatida berildi.
90.	Aylanma ko‘cha	Subhidam MFY	Nomsiz ko‘cha	**1.Bedil** 2. Limonzor 3.Abdulla Oripov	Bedil – Xal shoiri hurmat manosida
91.	Berkko‘cha	Subhidam MFY	Nomsiz ko‘cha	1.Rayhonobod **2.Zulfiya** 3. Do‘g‘oba	Zulfiya – Xalq shoirasi hurmat manosida

92.	Aylanma ko‘cha	Subhidam MFY	Nomsiz ko‘cha	**1.Xirmontepa** 2.Chaman 3.Uvaysiy	1.Ushbu ko‘chada dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan oilalarning ko‘pligi sababli, qolaversa, hosili xirmon bo‘lsin deb, shu nom taklif etilmoqda.